

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Defektologiya kafedrası

**MAXSUS PEDAGOGIKA
fanidan**

REFERAT

MAVZU: Kasbga doir o'yinlar

**Bajardi: X. Alimdjonov
302- guruh**

Rahbar: X. Muzaffarova

J I Z Z A X – 2012

“KASBIY MASLAHAT” O’YINI

(o’yinning asosiy varianti)

O’yinning ushbu variantining maqsadi: o’quvchilarning kasbiy rejalarini to’g’ri tashkil etishi hamda o’rtoqlarining kasb tanlashida yordam ko’rsatishga o’rgatishdan iborat.

O’yindan o’quvchilarning “Inson. Mehnat. Kasb” mavzusidagi suhbatlardan keyin foydalanish maqsadga muvofiq. O’yin o’quvchilar yashayotgan hudud xususiyatlarini hisobga olib, maktab sharoitida o’tkazilishi mumkin.

O’yinning o’tkazish shartlari: O’yin 7-9 sinflar uchun mo’ljallangan. O’yinda o’quvchilar guruhi (3-4 kishilik) ishtirok etadi. O’yin uchun alohida bino zarur. O’yinning dastlab davom etish muddati 30-50 daqiqani tashkil etadi. Keyingisi esa 15 dan 40 daqiqagacha bo’lishi mumkin. O’yin uchun sarflanadigan vaqt 1,5-2 soatdan orttib ketishi kerak emas.

O’yinni o’tkazish tartibi:

Tayyorgarlik bosqichi: Tayyorlov bosqichida ishtirokchilar umumiy stol atrofida qulay joylashib olishlari lozim. Boshlovchi (psixolog) o’quvchilarga kasbiy rejaning asosiy qismlari haqida tushuncha beradi (kasb tanlashning “xohlayman”, “uddalay olaman”, “muhim“ degan shartlariga asoslanadi).

1-bosqich. Boshlovchi ishtirokchilarni o’yin shartlari bilan tanishtiradi.

Yo’riqnoma: "Kasbni to’g’ri tanlash va kasbiy nufuzga ega bo’lish muhim. Kasb tanlash bo’yicha mutaxassislar sizga bu borada yordam berishlari mumkin. Kasb tanlash yuzasidan maslahatlashish uchun o’quvchilar ota-onalari bilan birgalikda mutaxassisga murojaat etadilar. Bizning mashg’ulotimizning maqsadi kasb tanlashda o’rtog’imizga yordam berish hamda o’zimizning bu boradagi muammolarimizni hal etishga o’rganishdan iborat.

Hozir sizlarning orangizdan kasb yuzasidan maslahat beruvchi (“profkonsultant”) (o’yinda ular ikki kishi bo’lgan ma’qul) , “o’quvchi” va uning “ota-onasi” rolini ijro etuvchilar ajartib olinadi.

Kasb yuzasidan maslahat beruvchi (profkonsultant) lar va ota-onalar rollarini ijro etishda o'zlarini jiddiy , o'quvchilar esa o'zlarini odatdagidek tutishlari ma'qul. Sizlar kasb yuzasidan maslahat beruvchining o'quvchi va uning ota-onasiga yordam ko'rsatish sahnasini ijro etishlaringiz lozim. O'yinda har biringiz o'z munosabatingiz va so'zingiz bilan ishtirok eting. Agar savollar bo'lmasa, o'yinni boshlaymiz. Men sizlarga xalaqit bermayman (boshlovchi ishtirokchilardan o'zini chetga oladi va ularni faoliyatini kuzatib boradi)".

2-bosqich. O'quvchilar o'yinni mustaqil olib boradilar. Boshlovchi ularning xatti-harakatlarini chetdan turib kuzatadi. Faqat quyidagi holllarda boshlovchi o'yinni tashkil etishda aralashishi mumkin:

a) o'quvchilar odatlanmagan rollarni o'zlashtirishga qiynalganlarida hamda jiddiy masalalarni muhokama qilishga e'tibor qaratmasalar. Aslida boshlovchi ularning ishlariga aralashishi kerak emas.

b) Hal etilayotgan muammo yuzasidan o'quvchilar xulosaga kelishga qiynalsalar. Bu holda ham boshlovchi birdaniga ularga ko'rsatma bermaydi, balki ularning masala yuzasidan o'ylab ko'rishlarini taklif etishi lozim. Ko'p hollarda bolalar masala yuzasidan o'zlari o'ylab ko'rib, uning echimini topib oladilarva qiziqarli takliflar beradilar.

v) o'quvchilardan jo'yali takliflar chiqmasa va o'yinni yakunlashda xavf tug'ilsa boshlovchi ularga ko'rsatma berishi mumkin.

g) boshlovchi quyidagi hollarda o'yin jarayoniga aralashishi mumkin:

- o'yin vaqtida ishtirokchilar orasida nizolar paydo bo'lsa ;
- ishtirokchilardan birortasi (xususan, "profkonsultant") ishonch bilan noto'g'ri narsalarni gapirib qo'ysa va boshqalari uni qo'llab-quvvatlasalar;
- ishtirokchilar boshlovchidan ma'lumot olish uchun murojaat qilsalar;
- ishtirokchilar xususiy masalani muhokama qilishga berilib ketsalar;
- ishtirokchilarda bir xil faollik kuzatilmasa (ishtirokchilardan biri faollashib, boshqa biri biror so'z ham aytmagan hollarda)
- ishtirokchilar ochiqdan ochiq axmoqchilik qilsalar.

Boshlovchining o'yinlarga kam aralashuvi maqsadga muvofiq:

d) qo'llab-quvvatlovchi qarashlar va imo-ishoralardan ishtirokchilarni ruxlantirish va ularga dalda berish maqsadida foydalanishi;

e) yakuni xulosa chiqarishda muammoni mohiyatini yoritib beruvchi jihatlarni hisobga olish uchun maslahatchiga yo'llanma berish mumkin.

3-bosqich. O'yinni muhokama qilish

Boshlovchi o'yin natijalarini muhokama qilish uchun o'quvchi va uning ota-onasiga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- "Kasbiy maslahatchilar sizning tashakkuringizga loyiqmi?" yoki
- "Maslahat sizga biron bir masalani hal etishga yordam bera oldimi?".

Ularning fikrini tinglagandan so'ngra boshlovchi maslahat jarayonida yo'l qo'yilgan bir necha kamchiliklar xususida to'xtalishi hamda ota-ona bilan o'quvchilar faoliyatidagi nuqsonlarni aytib o'tishi va qanday to'g'ri ish tutishlari mumkinligini tushuntiradi. Buning uchun boshlovchi o'zining shaxsiy rejasini tuzish tajribasiga suyanishi mumkin.

4-bosqich.

Muhokamadan so'ngra o'quvchilar rollarini almashadilar va yangi o'yinni boshlaydilar. Odatda navbatdagi o'yin ijrosi oldingiga qaraganda faol va kam xatolarga yo'l qo'yilishi kuzatiladi

Rolli o'yinning diagnostik imkoniyatlari

O'yin o'quvchilarning har xil kasbiy rejalar bilan ishlashga tayyorligini va shaxsiy niyatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga yordam beradi. Agar o'yin kichik guruhlarda tashkil etilganda psixolog har bir ishtirokchi haqida qimmatli ma'lumotlar oladi.

O'yinning borishida duch kelinadigan qiyinchiliklar

Agar o'quvchilar o'yin davomida ko'p xatolarga yo'l qo'ysalar psixologning aralashuvi ortadi va uning borish samaradorligini pasaytiradi. O'yin yuqori mazmunga va mantiqiy ahamiyatga ega. Uning mantiqiy jihatlarni borishida tushunmagan holda, ya'ni stixiyali borishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Ko'pincha

bunday holat birinchi o'yin davomida kuzatiladi. O'yin davomida boshlovchining o'zi kutmagan savollarga ham duch kelishi mumkin. SHu sababli, o'yin vaqtida u o'zida bir qator ma'lumotnoma va uslubiy qo'llanmalarga ega bo'lishi muhimdir.

O'yinni rivojlantirish istiqbollari

O'yinga qo'shimcha faollashtiruvchi usullarni qo'shish, qulay ma'lumotnomalardan foydalanish va o'yin guruhini tanlashga alohida e'tibor qaratish orqali mukammallashtirib borish mumkin. Buning uchun o'yin davomida uning borish tartibini maxsus bayonnoma orqali qayd etib borishga to'g'ri keladi.